O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI XALQ ERTAKLARIDA OLQISHNING FORMULAVIYLIGI, TAKROR VA KUMULYATSIYANING QIYOSIY-POETIK XUSUSIYATLARI

Muxriddin Yunusov

Annotatsiya. Mazkur tezisda o‘zbek va ingliz tillaridagi xalq ertaklarida olqishning formulaviy tuzilishi, grammatik parallelizm, anafora, takror va kumulyatsiya kabi poetik vositalar qiyosiy-tipologik jihatdan o‘rganiladi. O‘zbek folkloridagi olqish formulalari ingliz va irland ertaklaridagi ezgu tilak ifodalovchi birliklar bilan qiyoslanib, ularning struktur-semantik xususiyatlari, badiiy ta’sirchanligi hamda syujet rivojidagi vazifalari yoritiladi. Olqishning ertak tarkibida personajlar munosabati, axloqiy baho va kelajakdagi voqealarni oldindan belgilashga xizmat qiluvchi kichik folklor janri sifatidagi imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: olqish, blessing, xalq ertagi, qiyosiy poetika, formulaviylik, anafora, parallelizm, takror, kumulyatsiya, syujet funksiyasi.

Kirish

Xalq ertaklari turli xalqlarning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi va badiiy tafakkurini aks ettiruvchi muhim folklor janrlaridan biridir. O‘zbek va ingliz tillaridagi folklor an’analari turli tarixiy-madaniy sharoitlarda shakllangan bo‘lsa-da, ularning poetik tuzilishida formulaviylik, takror, parallelizm va kumulyatsiya kabi mushtarak xususiyatlar kuzatiladi. Mazkur vositalar xalq ertaklari tarkibida uchraydigan olqish birliklarining badiiy qurilishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Olqishning yetakchi vazifasi adresatga ezgu natija tilashdan iborat bo‘lsa, ertakning asosiy vazifasi voqeani hikoya qilishdir. Biroq olqish ertak tarkibiga kirganda uning umumiy poetik tizimi bilan uzviy aloqaga kirishib, personaj nutqi, syujet rivoji va axloqiy baholashning tarkibiy qismiga aylanishi mumkin. Shu sababli olqishni ertak matnidagi tasodifiy ijobiy gap emas, balki muayyan janriy va poetik xususiyatlarga ega nutqiy birlik sifatida o‘rganish zarur.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek va ingliz tillaridagi folklor materiallarida olqishning formulaviyligi, grammatik parallelizm, takror va kumulyatsiya xususiyatlarini qiyosiy-tipologik jihatdan tavsiflash hamda ularning ertak poetikasidagi vazifalarini aniqlashdan iborat. Tahlilda qiyosiy-tipologik, struktur-semantik va kontekstual yondashuvlardan foydalaniladi.

Formulaviylik olqish poetikasining struktur asosi sifatida

Og‘zaki xalq ijodining muhim belgilaridan biri formulaviylikdir. Formulaviylik muayyan nutqiy qoliplarning turli vaziyatlarda takror qo‘llanishi va yangi mazmun bilan boyitilishini anglatadi. L.S. Efimova yoqut algysi formulalarini o‘ziga xos, o‘tkinchi va umumiy turlarga ajratadi [1]. Mazkur tasnif olqish formulalarining muayyan marosimga mansubligi, boshqa janrlarda takrorlanishi va folklor an’analari o‘rtasidagi aloqalarini o‘rganishda metodologik ahamiyatga ega.

O‘zbek folklorida olqishlar «bo‘lsin», «bersin», «qilsin», «asrasin» kabi istak shakllari orqali ifodalanadi. «Yo‘ling ochiq bo‘lsin», «Baxtingni bersin», «Xudo asrasin» kabi formulalarda ezgu natija fe’lning istak ma’noli shakli orqali yuzaga chiqadi. Ingliz tilida esa may, wish, bless kabi vositalar shunga yaqin semantik vazifani bajaradi. Masalan, May you be happy, May your journey be safe, God bless you kabi konstruksiyalar adresatga baxt, omonlik va ilohiy himoya tilash mazmunini ifodalaydi.

Mazkur misollar ikki tilning grammatik modellarini ko‘rsatadi. O‘zbek tilida istak ko‘pincha fe’lning morfologik shakli bilan, ingliz tilida esa modal yoki leksik vositalar yordamida ifodalanadi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Biroq har ikkala holatda ham formulaviylik nutqning ixchamligi, takrorlanish imkoniyati va semantik barqarorligini ta’minlaydi.

Xalq ertaklarida ham formulaviylik muhim kompozitsion vazifani bajaradi. O‘zbek ertaklaridagi «Bor ekan, yo‘q ekan», «Uch kecha-yu uch kunduz», «Murod-maqsadiga yetibdi» kabi qoliplar hikoyaning boshlanishi, davomiyligi va yakunini belgilaydi. Ingliz ertaklaridagi Once upon a time, for three days and three nights, and they lived happily ever after kabi formulalar ham shunga yaqin kompozitsion vazifalarni bajaradi. Mazkur birliklar olqish hisoblanmasa-da, ular ertak va olqish poetikasidagi umumiy formulaviy tamoyillarni tushunishga yordam beradi.

Grammatik parallelizm va anaforaning qiyosiy xususiyatlari

Anafora bir xil so‘z yoki grammatik birlikning ketma-ket sintaktik tuzilmalar boshida takrorlanishidir. Parallelizm esa o‘xshash grammatik konstruksiyalarning izchil qo‘llanishi orqali matnning ritmik va mazmuniy yaxlitligini ta’minlaydi. Qorachoy-bolqor olqishlaridagi «bersin... bersin...», xakas folkloridagi «bo‘lsin... bo‘lsin...» shakllari ana shunday poetik tuzilishning namunasidir [2; 3].

O‘zbek olqishlarida bir xil grammatik qolipning ketma-ket takrorlanishi ezgu tilaklarning semantik doirasini kengaytiradi. Masalan, «Yurting tugamas bo‘lsin, nasling uzilmas bo‘lsin, qoning to‘kilmas bo‘lsin» kabi tuzilmalarda grammatik shakl saqlanib, tilak obyektlari almashadi. Natijada alohida istaklar umumiy farovonlik va himoya mazmuniga birlashadi.

Ingliz tilidagi olqish konstruksiyalarida ham May... May... yoki Bless... Bless... kabi takroriy modellar parallel istaklarni yagona kompozitsion butunga birlashtirish imkoniyatiga ega. Har ikki tilda takrorlanuvchi grammatik vosita matnning ritmik markazini tashkil etadi. Biroq o‘zbek tilida bu vazifa ko‘proq fe’lning istak shakllari, ingliz tilida esa modal va leksik vositalar orqali amalga oshiriladi.

Parallelizmning ikki asosiy funksiyasini ajratish mumkin. Birinchisi — mnemonik funksiya bo‘lib, u og‘zaki matnni esda saqlash va qayta ijro etishni osonlashtiradi. Ikkinchisi — ekspressiv funksiya bo‘lib, takror orqali tilakning hissiy ta’sirini kuchaytiradi. Shu jihatdan olqish va ertakdagi takror umumiy og‘zaki poetika ehtiyojlari bilan bog‘liq.

Ingliz va irland ertaklarida olqishning syujet bilan aloqasi

Olqishning ertak tarkibidagi poetik vazifasini ingliz folkloridagi «Wild Edric» hikoyasi misolida kuzatish mumkin. Unda g‘ayritabiiy kelib chiqishga ega ayol Edricga omad, sog‘lik, tinchlik va farovonlik tilaydi. «Good luck to you» formulasi ezgu tilakning bevosita adresatga qaratilganligini ko‘rsatadi [4].

Mazkur epizodda olqish oddiy ijobiy munosabatni ifodalash bilan cheklanmaydi. Ayol tilagan farovonlik muayyan shart bilan bog‘lanadi: Edric uning kelib chiqishini yuziga solmasligi kerak. Shart buzilganda esa baxt va farovonlik yo‘qoladi. Shu jihatdan olqish kelajakdagi voqealarni oldindan belgilovchi poetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Irland folkloridagi «Jack and His Comrades» ertagida esa olqish va qarg‘ishning qarama-qarshiligi muhim syujet elementi sifatida ishlatiladi [5]. Safarga chiqayotgan Jackga onasi ozroq oziq-ovqatni olqish bilan yoki ko‘proq oziq-ovqatni qarg‘ish bilan olishni taklif etadi. Jack qarg‘ishni rad etadi va onasining olqishini afzal ko‘radi. Natijada ona unga barcha oziq-ovqatni ko‘plab olqishlari bilan beradi.

Ushbu epizodda olqish va qarg‘ish antitezasi moddiy manfaat bilan ma’naviy qadriyatni qarama-qarshi qo‘yadi. Qahramonning tanlovi uning axloqiy qiyofasini ochib beradi. Olqishning ko‘plik shaklida kuchaytirilishi esa ezgu munosabatning ekspressiv ta’sirini oshiradi.

O‘zbek folkloridagi «Yo‘ling ochiq bo‘lsin», «Xudo asrasin» kabi formulalar ham safar, himoya va ezgu natija semantikasi bilan bog‘liq. Ingliz va irland materiallari bilan qiyoslanganda, umumiylik

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

olqishning adresatga yo‘naltirilishida va himoya ma’nosida ko‘rinadi. Farq esa mazkur tilaklarning badiiy obrazlar, shartli vaziyatlar va syujet rivoji bilan bog‘lanish usullarida namoyon bo‘lishi mumkin.

Uchlik modeli va ertak kompozitsiyasi

Uch soni ko‘plab xalqlar folklorida muhim kompozitsion va ramziy vazifani bajaradi. O‘zbek xalq ertaklarida uch aka-uka, uch sinov, uch yo‘l va uch yordamchi bilan bog‘liq syujet modellarini uchratish mumkin. Ingliz xalq ertaklarida ham uch qahramonning ketma-ket sinovdan o‘tishi yoki uchinchi urinishning hal qiluvchi natijaga olib kelishi keng tarqalgan kompozitsion usullardan biridir.

Uchlik modeli voqealarning bosqichma-bosqich rivojlanishini ta’minlaydi. Birinchi va ikkinchi urinishlarda muammo saqlanib qolishi, uchinchi urinishda esa yechim yuzaga kelishi mumkin. Bunday tuzilma hikoyaning ritmik tartibini yaratadi va tinglovchining qiziqishini saqlaydi.

Olqishlarda uchlik boshqacha vazifani bajaradi. Unda uchta ezgu tilakning ketma-ket ifodalanishi mazmuniy to‘liqlik va tantanavorlik taassurotini yaratadi. O.N. Dmitrieva yoqut to‘y marosimida uch soni bilan bog‘liq mifologik tasavvurlarning himoya tilagi bilan aloqasini ko‘rsatadi [6].

O‘zbek va ingliz ertaklarini qiyoslashda uchlikning syujetdagi vazifasi bilan olqish tarkibidagi vazifasini farqlash zarur. Ertakda uchlik voqealar ketma-ketligini tashkil etsa, olqishda ezgu istaklarning poetik yaxlitligini ta’minlashi mumkin.

Kumulyatsiya va poetik kuchayish

Kumulyatsiya matn birliklarining ketma-ket qo‘shilishi natijasida mazmunning bosqichma-bosqich kengayib borishidir. A.R. Gasharova lezgin olqishlaridagi kumulyativ prinsipni tahlil qilib, ezgu tilakning oilaviy farovonlikdan kengroq makon va ko‘payish tasavvurlariga tomon rivojlanishini ko‘rsatadi [7].

Kumulyatsiya oddiy takrordan farqlanadi. Oddiy takrorda muayyan birlik qayta qo‘llanadi. Kumulyatsiyada esa har bir yangi birlik avvalgi mazmunga qo‘shilib, uni kengaytiradi. Masalan, o‘g‘il, avlod, qishloq, shahar va mamlakat kabi obrazlarning ketma-ket kengayishi ezgu niyatning cheksizligini ifodalashi mumkin.

O‘zbek va ingliz folklorida olqishlarning kumulyativ qurilishini qiyoslash uchun tilaklarning qanday tartibda joylashishi, qanday obrazlar orqali ifodalanishi va mazmunning qaysi yo‘nalishda kengayishini aniqlash zarur.

«Wild Edric» hikoyasidagi sog‘lik, tinchlik va farovonlik tilaklarining ketma-ketligi semantik sanash orqali ezgu natija mazmunini kengaytiradi. Biroq bunday sanashni qat’iy kumulyatsiya deb baholash uchun har bir keyingi birlik avvalgi mazmunni bosqichma-bosqich kuchaytirishi lozim.

Shu sababli qiyosiy tahlilda oddiy sanash, parallelizm, takror va kumulyatsiyani bir-biridan farqlash muhimdir.

Olqishning ertak matnidagi badiiy funksiyalari

Xalq ertaklari tarkibida olqish oddiy nutqiy bezak emas, balki personajlar munosabati va voqealar rivojini ifodalovchi badiiy vosita sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. U qahramonning yaxshiligiga javob, kelajakdagi muvaffaqiyatga ishora, safar oldidan himoya tilagi yoki voqealar yakunidagi ijobiy baho sifatida qo‘llanadi.

«Wild Edric» hikoyasida olqish shartli farovonlik motivi bilan bog‘langan bo‘lsa, «Jack and His Comrades» ertagida u axloqiy tanlovni ochib beruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Mazkur ikki holat olqishning bir xil ezgu tilak vazifasini saqlagan holda turli syujet funksiyalarini bajarishi mumkinligini ko‘rsatadi.

O‘zbek va ingliz tillaridagi ertaklarni qiyosiy tahlil qilishda har bir olqish birligi uch darajada tavsiflanishi maqsadga muvofiq: struktur darajada uning formulaviyligi, parallelizmi va takror

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

xususiyatlari; semantik darajada qanday ezgulik tilanayotgani; kontekstual darajada esa so‘zlovchi, adresat, sabab va syujetdagi natija aniqlanadi.

Xulosa

O‘zbek va ingliz tillaridagi folklor materiallarida olqishning formulaviyligi, grammatik parallelizm, takror va kumulyatsiya kabi poetik vositalar qiyosiy-tipologik tahlil uchun muhim mezonlar hisoblanadi. Har ikki tilda ezgu tilaklar turli grammatik vositalar orqali ifodalansa-da, ularning struktur qurilishida formulaviylik, ritmik takror va semantik kengayish kabi mushtarak imkoniyatlar mavjud.

Ingliz va irland ertaklaridan ko‘rib chiqilgan epizodlar olqishning faqat ezgu niyat bildirish bilan cheklanmasligini, balki syujet rivoji, personaj xarakteri va axloqiy baholash bilan ham bog‘lanishini ko‘rsatadi.

Shu sababli olqishni qiyosiy-poetik o‘rganishda uning grammatik shakli, semantik mazmuni, badiiy vositalari va ertak kompozitsiyasidagi vazifasini birgalikda tahlil qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Efimova L.S. (2013). Poetika yakutskogo algysa.
2. Lokyaeva Zh.M., Uzdenova F.T. (2021). Alg‘ish janri va uning qorachoy-bolqor she’riyatidagi stilizatsiyasi.
3. Mindibekova V.V. (2024). Xakas marosimiy poeziyasida algas janri va turg‘un poetik formulalar.
4. Wild Edric. English Fairy and Other Folk Tales to‘plamidagi matn.
5. Jacobs J. (1892). Celtic Fairy Tales. «Jack and His Comrades». London: David Nutt.
6. Dmitrieva O.N. (2017). Yakut wedding ritual and blessing formulas.
7. Gasharova A.R. (2024). Lezgin olqishlarining poetik xususiyatlari va kumulyativ prinsipi.
8. Niyazova M.X. (2022). Ingliz va o‘zbek adabiyotida olqishlarning badiiy-estetik vazifalari tipologiyasi. PhD dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro.
9. Safarov O. (2010). O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Toshkent.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.